

Imloviy malakani shakllantirishda orfografik tahlil

Qobiljon Yunusov,
07.03. 1949 yilda tugilgan
Pedagogika fanlari nomzodi,
Andijon viloyati xalq ta'limi
xodimlarini qayta tayyorlash
va ularni malakasini oshirish
instituti dotsenti

O'zbekiston Respublikasi "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da ta'kidlanganidek, o'quvchilarni "ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ saodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish" boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biridair.

O'quvchilarning imloviy savodxonligini shakllantirish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi. Chunki o'quvchi imlo qoidasini tushunib, uni amalda tadbqiq etgunga qadar muayyan ma'noda mantiqiy firlab, o'ylanib va to'g'ri xulosa chiqar-gan holda xatosiz yoza oladi.

Imloviy malakani shakllantirishda qo'llaniladigan mashqlarning birinchisi orfografik tahlil hisoblanadi. Jarangli va jarangsiz undoshlar, harfiy birikmalar, so'z ichida yonma-yon kelgan undoshlar, talaffuzda tushib qoladigan undoshlar, bosh harflarni qo'llash haqidagi tushunchalar ustida ishlashda orfografik tahlilning ayrim turlarini o'tkazish samarali natija beradi.

Orfografik tahlilning fonetik-grafik tahlil, morfologik-orfografik tahlil, shuningdek, leksik-orfografik tahlil deb nomlangan turlari bo'lib, ularni otkazishda turli variantlardan foydalanish mumkin.

Fonetik-grafik tahlilda so'z ichidagi tovush bilan harf qiyoslanadi:

O'quvchilar o'qituvchi namunasi asosida so'zlarni quyidagicha tahlil qiladilar:

Lochin – 6 ta harf, 5 ta tovush

Ishchi – 6 ta harf, 4 ta tovush

Mushuk – 6 ta harf, 5 ta tovush

Jangchi - 7 ta harf, 5 ta tovush

Bu tahlilni o'tkazishda so'zlar lug'at diktani tarzida o'qituvchi tomonidan aytib berilishi, tarqatma varaqalarda tarqatilishi yoki doskada ikki variantda yozib qo'yilishi mumkin.

“Aytilishida tushib qoladigan undoshlar “mavzusi bo'yicha esa quyidagich o'tkazish maqsadga muvofiqdir:

O'qituvchi lug'at diktanti o'tkazadi. Diktant so'zlaridagi **t** va **d** tovushlarini Tushirib qoldiradi, o'quvchilar ham kerakli harfni qo'yib, ham o'sha harfni doira ichiga olib ketadilar:

Xursan... darax... payvan...

Balan.... farzan... poytax...

“So'z ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar” mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan tahlilda o'quvchilarga turli variantlarda so'zlar tarqatilib yoki lug'at diktanti Aytib turib yozdiriladi, yozdirish davomida o'quvchilar ketma-ketkelgan undoshlar orasiga / belgisini qo'yib yozadilar.

Kat/ta, lat/ta, al/la, mal/la, g'al/la, ar/ra, mar/ra va h.

Imloga o'rgatishda morfologik va leksik orfografik tahlillar ham yaxshi natijalar beradi.

O'qituvchi shuni unutmasligi lozimki, o'quvchida mustahkam imloviy malaka shakllanmasa, u asta-sekinlik bilan tushunchalarga befarq bo'la boshlaydi va mantiqiy fikrlashdan uzoqlashib boradi. Natijada uning xulqida va dunyoqarashida salbiy belgilar ko'payaveradi. Har bitta imloviy xato ortida esa insondagi muayyan kamchilik yotadi. **X** va **h** harflarini farqlamaslik inson xotirasidagi muayyan kamchilikni aks ettiradi, yozuvda ayrim harflarni tashlab ketish shoshqaloqlik va biror ishni bajarishda o'ylamaslik kabi nuqsonlarni anglatadi.